



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **666 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0,7 f.p. oshgan.**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **806 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul oyida Xorazm viloyatida 1338 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,0 % ga kamaygan hamda ularning soni 532 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 666 ta (4,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14340 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,0 %), Urganchning soni 532 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin. Xiva (9,6 %) tumanlarida va Xiva shahrida (8,6 %) kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	15086	100	14340	100
Urganch sh.	3740	24,8	3436	23,9
Xiva sh.	1347	8,9	1295	9,0
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	752	5,0	731	5,1
Gurlan	889	5,9	854	5,9
Qo'shko'pir	866	5,7	842	5,9
Urganch	1530	10,1	1487	10,4
Xazorasp	1044	6,9	1014	7,1
Xonqa	1125	7,5	1101	7,7
Xiva	1495	9,9	1387	9,7
Shovot	734	4,9	691	4,8
Yangiariq	998	6,6	960	6,7
Yangibozor	566	3,8	542	3,8




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 0,7 % o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,0 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 10,2 % qurilishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,8 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyul holatiga 1338 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (327 ta), Urganch (165 ta), Xonqa tumanlarida (112 ta) va Xiva shahrida (111 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (53 ta), Gurlan (63 ta) hamda Bog'ot (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (326 ta), sanoatda (232 ta), qurilishda (143 ta) va qishloq va o'rmon xo'jaligida (141 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) hamda tashish va saqlashda (38 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
Jami:	1149	1338
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	139	141
Sanoat	297	232
Qurilish	105	143
Savdo	257	326
Tashish va saqlash	49	38
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	92	84
Axborot va aloqa	22	14
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	34	25
Boshqa turlari	154	335

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 avgust holatiga 11435 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4023 ta, oilaviy korxonalar – 1042 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 6071 ta va boshqalar 299 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 54 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 14,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 45 tasi qo'shma korxonalar, 9 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 13 ta (24,0 %), Shovot tumani 12 ta (22,2 %) va Xiva shahar 6 ta (11,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa 1 ta (1,9 %), Yangibozor 1 ta (1,9 %), Xazorasp 2 ta (3,7 %) va Xiva 2 ta (3,7 %) tumanlar hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 38 ta (70,3 %), savdoda 8 ta (14,8 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda esa 3 ta (5,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,9 %), tashish va saqlashda 1 ta (1,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (1,9 %) va qurilishda 2 ta (3,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, tashish va saqlash hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek axborot va aloqa hamda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud emas.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 6 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamaygan yoki 25,0 % ga kamaygan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, Birlashgan Arab Amirligi – 1 ta va Turkmaniston —1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 4 ta, savdoda 1 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11363 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 3,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2771 tasi (24,4 %) Urganch shahriga, 1231 tasi (10,8 %) Urganch, 1197 tasi (10,5 %) Xiva tumanlariga hamda 1178 tasi (10,4 %) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11363 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3423 tasi (30,1 %) – savdoda, 2245 tasi (19,7 %) - sanoatda, 1450 tasi (12,8 %) - qurilishda, 1086 tasi (9,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 785 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 545 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 247 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 195 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1387 tasi (12,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1101 dan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda deyarli o'zgarmagan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (287 ta), Urganch tumanida (141 ta), Xiva tumanida (87 ta) va Xiva shahrida (86 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (37 ta), Gurlan (58 ta) hamda Yangiariq (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (325 ta), sanoatda (232 ta), qurilishda (143 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (140 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta), tashish va saqlashda (38 ta) hamda yashash va ovqatlanish (83 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 1086 tani tashkil etib, ulardan 1042 tasi yoki 95,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **36,4** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

01.08.2017 y.

Ro'yxatdan o'tgan - 792

Faoliyat yuritayotgan - 768

Yangi tashkil etilgan - 204

01.08.2018 y.

Ro'yxatdan o'tgan - 1086


Faoliyat yuritayotgan - 1042

Yangi tashkil etilgan - 190



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,9 % yoki 291 tasi sanoat, 26,6 % yoki 277 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,4 % yoki 223 tasi savdo, 10,1 % yoki 105 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 18 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % yoki 5 tasi tashish va saqlash hamda 9,8 % yoki 102 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan